

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:33 (67094)

2016-yil

15-avgust

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim,
jonim senga fido,
O'zbekistonim!

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
38-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi
Madinabonu Bahodirova ham istirohat bog'ini
aylanib, ko'ngli zavqqa to'ldi.

«ANHOR-LOKOMOTIV»
barchaga quvonch ulashmoqda

Sh. MAXMADIYEV/kollaj

Shu kunlarda butun mamlakatimiz bo'ylab eng ulug', eng aziz bayram - Istiqlolimizning 25 yillik shodiyonalariga katta hozirlik ko'rilmoqda. Bugun yurtimizning qay go'shasiga bormang, bunyodkorlik, obodonchilik ishlarining ustidan chiqasiz. Quvonarlisi, bu kabi xayrli ishlarga har bir Vatandoshimiz o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. Natijada,

shahar-u qishloqlarimiz, mahalla-yu guzarlarimiz yanada chiroy ochib, ko'ngillarga o'zgacha ko'tarinkilik ulashmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizda «Anhor-Lokomotiv» nomli yangi dam olish va istirohat bog'ining foydalanishga topshirilishi ham yurtdoshlarimizga bayram tuhfasini bo'ldi.

(Davomi 4-betda)

FARZANDLARIMNI G'AZAL O'QIB, TARBIYALAYMAN

Sarlavha o'rnida qo'yilgan bu ibora Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida yashovchi Sharifa Aliboyevaga tegishli. Qahramonimiz uy bekasi. Kamtar, kamsuqunligi shundoq ko'rinib turgan bu ayolning e'tirof etishicha, u Hazrat Alisher Navoiyning ikki yuzga yaqin g'azalini yoddan bilarkan.

– Bolaligimdan she'riyatga ishtiyoqim baland, – deydi Sharifa opa biz bilan suhbatda. Shu bois mumtoz adabiyotimizdan ko'plab g'azallarni yod olganman. Ularning ma'no-mazmunidan kelib chiqqan holda oila, ro'zg'or ishlariga yondashib kelaman. Ayniqsa, Navoiyning asarlari jon-u dilim. Bo'sh qoldim, deguncha Hazratning bitiklariga murojaat qilaman. O'tgan yili turmush o'rtog'im tug'ilgan kunimga Alisher Navoiyning o'n tomlik asarlari to'plamini tuhfa etganlarida, boshim osmonga yetdi.

Oilada to'ng'ich farzand – kollej bitiruvchisi Shohsanam ham Alisher Navoiyning yetmishta g'azalini yodlagan ekan. Ukasi Samandar esa bu sanoqni yuzdan oshirib, kollejdagi tengdoshlariga ibrat bo'lmoqda. Uning «Lison ut-tayr» dos-tonini to'raligicha yod olganini qoyil qolib ta'kidlagimiz keldi. Oilaning kenjayoti Shahzoda ham opa-akasidan qolishmaslik harakatida. Tuman-dagi 5-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi bo'lgan bu qizaloq bugungacha qirqdan ortiq g'azalini yodlashga ulguribdi.

2010-yildan beri ibratli tashabbus sifatida tuman miqyosida o'tkazilib kelinayotgan «Bir kishiga yetmish g'azal» nomli o'ziga xos tanlovning uch yildan beri mutlaq g'olibi ham ana shu aka-singillar ekanligining sirini anglagandek bo'ldik.

– O'g'il-qizlarimga g'azal o'qib berishdan aslo erinmayman. Shuning uchun bo'lsa ke-

rak, oilamizda hamma adabiyotga, she'riyatga ixlosmand. Garchi turmush o'rtog'imning kasbi duradgorlik bo'lsa ham, bizning yon-atrofdan u kishiga yetadigan g'azalxon yo'q.

Uy bekasining so'zlarini tinglar ekanman, ko'nglimdan: «Nahotki, shu bolalar yuzlab g'azalini yoddan bilsa», degan savol o'tdi. Mezbonlar ham bu holatni sezdi chog'i, Samandar berilib g'azal o'qiy boshladi:

***Kecha kelgudir debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi...***

Undan keyin Shahzoda o'qidi:

***Ochmagay erding jamoling olam aro koshki,
Sochmagay erding olamg'a g'avg'o koshki...***

Navoiyxon oila. Ilm-u ma'rifatga oshno tutingan bu dargohni shunday atagimiz keldi. Va qalbimizning tub-tubida ularga nisbatan havas uyg'ondi. Zero, allomalarimiz ilm-u ziyoni kelajakni yorituvchi mayoq, deya ta'riflaganlarki, biz bu hikmatning isbotini bugun jamiyatimizda ro'y berayotgan ulug'vor islohotlarning ildizi ma'naviy mustahkam ekanligini ko'rib turibmiz. Yoshlarga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rlik tufayli ma'naviy to'kis oilalar safi kengaymoqda. Bunday oilalarda Shohsanam, Samandar va Shahzodaga o'xshagan yuzlab farzandlar kamolga yetmoqda.

Maqsud JONIXONOV

**O'tayotgan har bir kun bizni
Mustaqillikning 25 yillik to'yi sari tobora
yaqinlashtirmoqda.**

JONIM SENGAFIDO, O'ZBEKISTONIM!

Bayramimiz bu yil «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» degan ezgu shiorni o'zida mujassam etishi yuraklarimiz to'ridagi faxr tuyg'ularini junbushga keltirmoqda.

Bugun O'zbekiston atalmish jannatmakon yurtimizni butun dunyo tan oldi. Istiqolning sharofati bilan opam Madinaxon Avstraliya universitetlaridan birida tahsil olmoqda. Bir kuni arab millatiga mansub kursdosh dugonasi uni uyiga taklif qilibdi. Ota-onasi, buvisi mehmonning O'zbekistondan ekanini bilgach, quvonchdan boshlari ko'kka yetibdi. Oilaning katta bobosi vaqtida bir muddat O'zbekistonda ishlagan ekan. O'zbek xalqining mehnatkash, mard, tanti va juda mehmondo'st ekanligi haqida to'liqlanib gapiribdi.

Shunday farahbaxsh lahzalarda ko'nglim yorug'lik tomon talpinadi. Bu qalbimda jo'sh urayotgan Istiqlol shukuhli, ozod va obod Vatanning erka farzandi ekanligimdan shukronalik hissi.

Har otayotgan tongingda toleyimiz kulayotgan muqaddas O'zbekistonim, qutlug' 25 yoshing muborak bo'lsin!

**Pokizabonu RAHMATOVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
242-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi**

Poytaxtimiz kundant kunga chiroy ochmoqda. Shu bois bo'lsa kerak, bu yerga kelayotgan mehmonlarning salmog'i ham ortib borayotir.

MUZZAMXON AYANING NABIRALARI

Mana, bugun ham nuroniy onaxon nabiralari qurshovida tahririyatimizga o'zgacha fayz berib, kirib kelishdi. Muazzamxon aya qizlari Musharrafxon va nabiralari bilan Farg'ona vodiysining Qo'qon shahridan ekanligini bilib oldik. O'zbekona lutfga boy mehmonlar bilan suhbatimiz tezda qovushdi.

– Men Roziyaxon BAHODIROVA, Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisiman, – deya o'zini tanishtirdi nabiralardan biri. – Eng ulug' va eng aziz bayramimiz munosabati bilan Toshkentda katta bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda ekan. Osmono'par binolar, ulkan ko'priklarni ko'rib, bunga yana bir bor amin bo'ldik. Bizning Qo'qonda ham yaqinda bolalar uchun «Yoshlar» bog'i qurib bitkazildi. U yerda «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz» festivali o'tkazilib, unda taniqli san'atkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

Yozgi ta'limimiz mazmunli o'tmoqda. Men bo'sh vaqtlarimda rasm chizaman, kitob o'qiyman, she'r yozaman, yana ayamlarga uy ishlarida qarashaman. Yaqindagina Said Ahmadning «Qorako'z Majnun» kitobini maroq bilan o'qib chiqdim.

Muzayyana singlim 5-sinfga o'tdi. U juda yaxshi rasm chizadi. Tumanimizda o'tkazilgan «Bolalarning asragin, dunyo!» ko'rik-tanlovida II darajali diplom bilan taqdirlandi.

Roziyaxon bilan suhbat-

ZUBAYDA olgan surat



lashib, uning adabiyotga havasmand ekanini, 2-sinfdan boshlab she'rlar yozishini ham bilib oldik. Ikk bor qo'lga qalam tutqazib, alifbeni o'rgatgan Hilolaxon Rustamovaga atalgan she'rini «Ustozim» deb nomlagan ekan. Bu yil u ona tili va adabiyot fani bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning shahar bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etibdi. Bunda o'qituvchilari Hikmatxon Ziyayeva hamda Nodirabegim nomidagi to'garak rahbari Farida Husainovadan juda minnatdor ekanini bildirdi. Uning ijod namunalari viloyat gazetalarida tez-tez chop etilarkan. Kelajakdagi orzusi jurnalist bo'lish.

– Mening isimim Muhammadsodiq, 3-«A» sinf o'quvchisiman, – deya suhbatga qo'shildi uning ukasi. – Sportning dzyudo va futbol turlariga qiziqaman. Murabbiyimiz Botirjon akadan dzyudo sir-asrorlarini o'rganmoqdaman. Opalarim kabi ertak kitoblarni yaxshi ko'raman. Shuningdek, ingliz tili to'garagiga qatnayman. Toshkent menga juda yoqdi. Uyga qaytgach, safarda olgan taassurotlarimni o'rtoqlarimga ham so'zlab bermoqchiman.

Opa-ukaning samimiy so'zlaridan, erishgan yutuqlaridan quvondik. Boshlanajak yangi o'quv yilida bundan-da katta yutuqlarni qo'lga kiritishlarini tilab, ular bilan iliq xayrlashdik.

Dilorom HOTAMOVA



„Tong yulduzi“ gazetasiga
maktub

Assalamu alaykum,
„Tong yulduzi“ gazetasi tahririyati
xodimlari!

Men rasmi chiqishga juda qiziq-
man. Har yili „Tong yulduzi“ ga-
zetasiga obuna bolaman va uning
har bir sonini qoldirmay o'qib bora-
man. 2016-yil 7-mart sonida e'lon
qilingan „So'g'lom bola - boy bola“ tan-
lovini o'qib qolib, men ham shu
tanlovda ishtirok etishni maqsad
qildim. Bu tanlovda o'zim qalig'gan
rasm yonalishida g'atrashmoqchiman.

Darhaqiqat, hgm jismonan, ham
ma'nadan so'g'lom bo'lgan bolagina yurt
kelajagini bunyod etadi. Bizning makta-
bimizda sport bilan shug'ullanishi-
mizga alohida e'tibor beriladi. Bu yil biz
o'quvchilar uchun yana bir quvonchli
voqea: maktabimizda bolalar o'yin
maydonchasi va yangi zamonaviy fut-
bol o'yinchohi taydalanishga topshirildi.

O'zim ham sportning suvash turi
bilan shug'ullanam.

„So'g'lom bola - boy bola“ kabi max-
muni tanlovlarni tashkillashtirgan-
laringiz uchun siz yodkorlarga kat-
ta rahmat. Tanlovda ishtirok etayotgan
barcha tengdoshlarimga omad tilab
qolaman.

Soliha Murtosqulova,
Kaxax viloyati, Kaxax fu-
maridagi 10-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi

VATAN HAQIDA SO'Z

**Vatan. Unga jamiki ta'riflar jo bo'lar. Mar'd bolaning beshigida,
munis onaning duoga qo'l ochgan qo'llarida, to'kin oila
dasturxonida...**

Ozod yurtimning quyoshi zarrin nur taratsin deb, har tong derzamni ocha-
man. Qayerda bo'lmayin, eng totli so'zlarim Vatan uchun. Tuyg'ularim, sado-
qatim, cheksiz muhabbatim ila jonajon yurtimga chambarchas bog'langan-
man. U menga shunchalar mehribon. Vatan bu ona tuproq, do'st-qadrdon,
ota-onang, ozodliging. Shunday ekan, uni e'zozlamoq va sadoqat bajo
aylamoq darkor. Hozir tiyrak ko'zlar kelajak uchun buyuk rejalar tuzmoq-
da: o'qib-o'rganaman, izlanaman, qilib harakat, diyorimizga esa baxt-u
barokat!

Ziyoda SHUKUROVA,
Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi 3-umum-
ta'lim maktabi o'quvchisi



Biz baxtiyor avlodmiz



Farg'ona vodiysiga xizmat safariga borishimni
eshitib, quvondim. Bahonada ota hovliga o'tib,
qadrdonlar bilan ko'rishib ham kelaman. Shu
xayollar bilan yengil mashinalar to'xtash joyi-
ga yo'l oldim. Haydovchilar orasidan o'tib borar
ekanman, mashinaning orqa o'rindig'ida yelpinib
o'tirgan otaxonga ko'zim tushdi. Salom berib,
hol-ahvol so'rashdik.

– Yo'l bo'lsin o'g'lim? – dedi otaxon yelpinish-
dan to'xtab.

– Chustga!

– Ey, bormisiz?! Biz bilan keta qoling! Hay-
dovchi yigit bitta odam bo'lsa yetadi, yo'lga
tushamiz, degandi. Nevaram bilan anchadan
beri kutaymiz, – dedi u sal narida, daraxt
soyasida turgan o'smiringa ishora qilib. Ota-
xon aytganidek, men o'tirishim bilan mashina
yo'lga tushdi. Orqada nabirasi bilan ketayot-
gan hamrohim yengil nafas olgandek bo'ldi.
So'ng yo'l xaltasidan yupqaroq, ammo kattagi-
na nonni olib, asta ushatib manzirat qildi.

– Ulug' joylardan kelyapmiz. Bir burdadan
yenglar, savob bo'ladi. Xorazmning noni.

Non nihoyatda mazali edi. Otaxonga minnat-
dorchilik bildirib so'radim:

– Kunning issig'ida safarga chiqibsiz?..

– Ey, o'g'lim, yaqin qirq yil yuk mashinasi
haydaganman. Dunyoning ko'p joyini ko'rdim.
Ochig'li, bunday yurishlarga toqatim ham yo'q
edi. Nevaram Fayzulla 9-sinfga o'tdi, tanixga juda
qiziqadi, – dedi u yonidagi bolaning telxasiga
ohista urib qo'yarkan. – Bu yil «Bilimlar bel-

lashuvi»da tuman bo'yicha 3-o'rinni oldi. Yildan
yilga natijalari ko'tarilib borayapti. Uzoq yillar
o'qituvchilik qilgan oshnam bor. Uning aytishi-
cha, tarixchi bo'laman, degan odam avval o'zi
tug'ilib o'sgan joyi, ona yurti tarixini yaxshi bili-
shi kerak ekan. Uning bu gapidan so'ng
avval tuman, keyin viloyatimizdagi
tarixiy joylarni
ziyorat



HAYOTNING HAR LAHZASI IBRAT

qildik. Endi esa jonajon mamlakatimiz bo'ylab
sayohatni boshladik. Uch kun mobaynida
Xorazmning ko'p joylarini aylandik. Nazarimda,
yurtini tomosha qilish payti endi kelibdi. Qayer-
ga borsang, ko'rib ko'zing quvnaydi. Dunyo
mo'jizasi bo'lgan Ichan qal'ani ham ko'rib, aj-

odlar zakosiga tan berdik. Bir paytlar Urganch-
ni o'rtasidan kesib o'tgan Shovot kanali qarov-
siz ahvolda edi. Kecha ko'rib lol qoldim. Kanal
bo'yi ajoyib sayilgohga aylanibdi. Ishonasizmi,
endi uyda o'tirgim kelmay qoldi. Agar keksa de-
may mashina berishsa, jon-jon deb xizmat qil-
gan bo'lardim, – dedi otaxon jilmayganicha.

Dilkash suhbatdoshing bo'lsa yo'l tanobi
ham tez tortiladi. Ohangaron suv ombori
ortda qolib, dovonga ko'tarila boshladik.
Bobo va nabira tog'lar bag'rini yorib
o'tgan temir yo'l va avtomobil yo'li ha-
qida suhbatlashib borishar, chamam-
da, nabiraning dadil va burro javobidan
bobo ham tog'lar kabi yuksalib borardi.

Ularni eshitib borar ekanman,
dafatan o'zimdan uyalib ketdim.
5-sinfda o'qiydigan qizim Durdon
uyimizdan uncha olis bo'lmagan «Qay-
roqsada» ziyoratgohiga olib borishimni,
geografiya o'qituvchisi u joy haqida
taassurotlarini yozib kelishni uyga va-
zifa qilib berganini aytgan edi. Bolam
boyaqish uch-to'rt bor iltimos qildi. Men
esa nimagadir vaqt topolmadim. Aslida,
hafsala qilmagandim. Hozir esa negadir ortimda
o'tirgan boboning ko'ziga tik qarashga botinol-
masdim. Qani endi Durdon yonimda bo'lib qol-
sa-yu, uni qo'lidan yetaklaganicha shahrimizdagi
barcha ziyoratgohlarga olib borsam. U bilan tari-
xiy joylar haqida to'yib-to'yib suhbatlashsam...

Yusuf ABDULLAYEV

«ANHOR-LOKOMOTIV»

barchaga quvonch ulashmoqda

(Davomi. Boshi 1-betda)

Mazkur istirohat bog'ida respublikada eng katta hisoblangan kartodrom, filmlar namoyish etiladigan, konsertlar o'tkaziladigan yozgi maydon, katamaran va retro-mashina shaklidagi elektr qayqlari bo'lgan sun'iy suv havzasi, 4 ta kinozal, 320 o'rinni restoran, yangi kafe va avtoturargohlar mavjud. Shuningdek, dam olish maskanida Toshkent teleminorasi, Kalta Minor, Sherdor madrasasi, Minorai Kalon, Toshkent kurantlari va Amir Temur davlat muzeyi kabi yurtimizdagi betakror tarixiy va zamonaviy binolarning maketlari ham bunyod etilgan.

– Ta'til kunlarida miriqib dam olayman. Kecha oyijonim men va

opamni «Anhor-Lokomotiv» istirohat bog'iga sayrga olib bordi. U yerdagi bir-biridan chiroyli attraksionlarda uchib, muzqaymoqlar yedik. Ayniqsa, menga qayiqda suzish juda yoqdi, – deydi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-umumta'lim maktabining 2-«F» sinf o'quvchisi Madina Tursunboyeva.

Dam olish maskanida kattalar uchun ham attraksionlar bunyod etilgan bo'lib, ularning eng kattasi 43 metrli «Osmono'par» qurilmisidir. Qolaversa, 50 metr balandlikka ko'tariladigan musiqiy favvara



ham bog' ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

– Ancha vaqtdan buyon Toshkentga kelib, shaharning diqqatga

sazovor joylarini tomosha qilishni niyat qilardim. To'g'risi, poytaxtimiz qisqa vaqt ichida tanib bo'lmas darajada chiroy ochildi. Farzandlarim Dilshoda va Muhammad-yusuf bilan bog'larni, sayilgohlarni aylanib, bir olam taassurot oldik. Ayniqsa, ularga «Anhor-Lokomotiv» istirohat bog'i juda manzur bo'ldi. Bularning bari jannatmakon diyorumizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning mahsulidir. Ilohim, yurtimizga ko'z tegmasin, – deydi andijonlik Dilrabo opa Sodiqova.

Maqolamizni o'qib, Sizda ham ushbu istirohat bog'iga borish istagi tug'ilgan bo'lsa, ajab emas. Unday bo'lsa, vaqtni qo'ldan boy bermang.

S. TURSINOV

BAYRAM NAFASI

Mustaqilligimizning 25 yilligi munosabati bilan Toshloq tumanidagi 12-umumta'lim maktabida «Kamalak» bolalar boshlang'ich tashkiloti tomonidan bayramoldi tadbir o'tkazildi.

– Ko'tarinki ruhda o'tgan madaniy-ma'rifiy kechada maktabimiz «Kamalak» bolalar tashkilotining 400 dan ziyod a'zolari ishtirok etdi, – deydi boshlang'ich tashkilot raisi Gulhayo Nodirova. – «Iqtidorli bolalar» yo'nalishi bo'yicha «Dutorchi qizlar», «Doira», «Dovul» guruhlarining chiqishlari, 1-sinf o'quvchilarining milliy raqs ijrolari tadbirga o'zgacha shukuh baxsh etdi. «Sport, salomatlik va ekologiya» yo'nalishida esa «Turon» yakkakurashi bo'yicha respublika chempionlarining chiqishlari va 7-sinf qizlari tomonidan badiiy gimnastika mashqlarining namoyish etilishi tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Muhammadjon MAHMUDOV, Farg'ona viloyati

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 57-umumta'lim maktabi viloyatdagi ilg'or ta'lim maskanlaridan biri sanaladi. Bu yerda o'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

TA'TIL MAROQLI O'TMOQDA

Maktabda tashkillashtirilgan sog'lomlashtirish maydonchasi ayni chog'da bolalarning sevimli maskanidir. Jismoniy tarbiya murabbiylari Radik Qutlimurodov va Jahongir Alimov sport turlari bo'yicha muntazam ravishda mashg'ulotlar o'tkazib kelmoqdalar. Bu ustozlar boshchiligidagi tumandagi 10-, 11-, 12-, 15-, 30-, 35-, 40-, 57-umumta'lim maktablarida o'tkazilgan turli sport musobaqalarida Hasan-Husan Azimjonovlar, Diyo-

ra Ahmedova, Zulxumor Nurxo'jayeva va Umid Nurxo'jayev g'oliblar safidan joy olib, ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'lmoqda. Asosiysi, yoshlar sport bilan oshno bo'lib, jismonan chinimoqdalar. Bu esa ularning yaqinda boshlanadigan o'quv yilida peshqadamlar safida bo'lishlariga zamin yarata-di. Zero, bu sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad ham shu, aslida.

Muzaffar AHMEDOV

BIR YILDA 202 TA «5» BAHO

Respublikamiz umumta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilar ko'plab topiladi. Bugun ulardan biri haqida hikoya qilmoqchimiz.

Muhammadyusuf Shahobiddinov Andijon tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 2-sinf-ga o'tdi. Quvonarlisi, u o'tgan o'quv yilini 202 ta «5» baho bilan yakunladi. Futbol uning jon-u dili. Krishtianu Ronaldu ishtirokidagi o'yinlarni qoldirmay ko'radi. O'zi ham Andijon shahridagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabida Denis Jo'rayev rahbarligida suzish mashg'ulotlariga muntazam qatnashib kelmoqda.

U ta'til kunlarida jahon xalqlari eraklaridan «Kichkina Muk», «Soxta shahzoda», «Qurbaqa malika», «Qisqichbaqa va Tulki» hamda «Qaysar Sichqoncha» kabilarni sevib mutolaa qildi. Tengdoshingizning boshqalardan ajralib turadigan jihati shundaki, u juda qiziquvchan. Onasi – matematika o'qituvchisi Nigora opadan xarita bilan ishlashni o'rganib oldi. Endilikda, dunyo mamlakatlarining nomi, poytaxti, joylashgan o'rini hech qiynalmay ko'rsata oladi.

– O'g'lim shu yoshida turli fanlarga qiziqayotganidan quvonaman. Hozirda astronomiyaga oid ma'lumotlarni so'rayverib, holi-jonimga qo'y-mayapti. U bilan birgalikda Quyosh tizimidagi sayyoralarini o'rganyapmiz. Farzandimning savollariga javob berish uchun ilgari o'rgangan bilimlarimni takrorlashga to'g'ri kelyapti, – deydi otasi Saidbek Valixonov.

Muhammadyusufning g'ayratiga biz ham qoyil qoldik. Kelajakda uning buyuk ajodlariga munosib voris bo'lib yetishishiga tilakdoshmiz.



Nurbek QIDIRALIYEV

MUHOKAMA UCHUN MAVZU

Nodiraning onasi «Qizim toza havoda dam olib kelsin», deb oromgohga yo'llanma oldi. O'zining vaqti bo'lmaganligi bois, yon qo'shnisi Gulchehra opadan qizi bilan bozorga tushib, bir-ikki xil kiyimlarni olib berishni iltimos qildi. Qo'shni opa ertasi kuni u bilan birga bozorga bordi.

Nodira Gulchehra opaning

TURTKI

maslahatlariga amal qilmay, «pulni oyim berganlar, nima olish ixtiyori menda», deya o'zboshimchalik bilan yelkalari ochiq, nihoyatda tor kiyimlarni tanladi. Keyin pardoz vositalari sotib olishga ham ulgurdi. Gulchehra opa ko'z o'ngida ulg'ayayotgan qizdagi bu o'zgarishni, albatta, onasiga aytaman, deb diliga tugdi-yu, biroq mavridi kelmadi.

Nodira ikki kundan so'ng oromgohga jo'nab ketdi. Endi u borgan joyida erkin qushday o'zi tanlagan ochiq-sochiq kiyimlarini kiyib, ko'z-qoshlarini bo'yab yura boshladi.

Bir kuni oromgohga bolalar nashrlarida ishlovchi ijodkorlar tashrif buyurishdi. Uchrashuvda shoira opalardan biri «Erta gullagan daraxt»

nomli dostonini o'qib berdi. Unda Nodira singari pardoz-andozga erta berilgan qizning qismati bayon etilgan edi. U Nodiraga qattiq ta'sir qildimi, tadbir poyoniga yetmasidanoq, sekin o'rmidan turib, yuvinish xonasiga qarab yo'l oldi. Dastlab, yuzidagi bo'yoqlarni yuvib tashladi. Keyin yoyilgan sochlarini o'rib oldi. U erta gullagan daraxt holiga tushmaslik uchun dastlabki qadamini tashlagan edi.

Ha, gohida yonimizdagi yaqinlarimizdan eshitgan tanbehimiz u qadar yurakka yetib bormasligi mumkin. Ammo, ijodkorlarning bir og'iz o'g'iti tezda o'z mevasini berishi hayratimizni oshiradi.

E'zoza MUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabining 9-«D» sinf o'quvchisi



HIKMATLAR XAZINASI ingliz tilida

Yaqinda Sarvinoz Nazarovaning «Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida «O'zbek ma'naviyati durdonalari» nomli mo'jaz kitobi chop etildi. Unda ajdodlarimizdan meros bo'lgan ibratli rivoyatlar, hikmatli so'zlar, o'zbek xalq maqollaridan namunalar jamlangan. Diqqatga sazovor jihati, muallif kitobni yangicha uslubda tayyorlagan. Ya'ni har bir hikmatli so'z va rivoyatlar ham o'zbek ham ingliz tillarida berilgan. Bu esa xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga astoydil bel bog'lagan yoshlar uchun ajoyib yangilik bo'lgani, shubhasiz.



Yosh iqtidor egasi 2015-yil gazetamizda e'lon qilingan «Erudits» («Ingliz tili bilimdonlari») Respublika tanlovida nasriy tarjimalari bilan ishtirok etib, faxrlı o'rinni egallagan edi. Uning o'z ustida ishlashi, izlanuvchanligi samarasini berdi. To'plamdan joy olgan mo'jaz asarlarning mavzusi yaxshi tanlangan, o'quvchini o'ylashga, mushohada qilishga va o'qiganlaridan xulosa chiqarishga undaydi. «Dono maslahat» rivoyatida yoshlar, ularning tarbiyasi borasidagi Luqmoni Hakimning nasihatları keltiriladi: «Nasihatlarimizning ko'pini yoshlarga aytasiz, bu-

ning sababi nima?» deb so'radilar. Luqmoni Hakim shunday javob berdi:

– Bog'bon yerni yumshatib, ko'chat o'tqazib, uning atrofini xas-xashakdan, yovvoyi o'tlardan tozalab, kerak bo'lgan vaqtda suv berib tursa, yaxshi qarasa, nihol tez voyaga yetib, shirin mevasini beradi. Farzand ham yoshligidan yaxshi tarbiya qilinsa, go'zal axloqli, odobli bo'lib o'ssa, o'ziga, ota-onasiga baxt-saodat keltiradi, jamiyatning eng faol a'zosi bo'lib yetishadi. Shu bois, nasihatlarimning ko'pi ularga bag'ishlangan».

To'plamda shuningdek, Forobiy, buyuk tarixchi olim Mahmud Kamol, shoir va olim Abu Bakr al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk insonlarning yoshlarga atalgan nasihatları, ibratli hikoyatlarini ikki tilda o'qishingiz mumkin.

E'tiborli jihati, muallif har bir hikoyada o'qilishi va yozilishi murakkab bo'lgan so'zlarni lug'at tarzida bergani o'quvchini aynan shu so'zlarni tez va oson yodda saqlab qolishiga yordam beradi.

N. YORMAT qizi

LESSON 100

CHOOSE THE SUITABLE ONE (Mosini tanlang)


Underline the word which best completes the following sentences.

1. His parents wouldn't (a allow b let c permit) him stay out later than 10.30 at night.
2. «Do you have anything to (a show up b offer c declare)?» The customs officer asked the passenger.
3. It was very difficult to see the road through the (a thick b strong c deep) fog.
4. The wasp (a bit b stung c scratched) Davron on the arm.
5. The dog stood in front of the fire (a waving b nodding c wagging) its tail.
6. My sister is really (a fond b interested c keen) of children.
7. «I'm sorry I'm late.» (a «You're welcome.» b «The same to you» c «That's all right.»)
8. She felt very (a disappointed b shy c unfriendly) when she didn't get the job.
9. The shopping centre was (a crowded b full c busy) of people on the first day the sales.
10. Choose number ten – it's my (a fortune b happy c lucky) number.

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

DESCRIBING FOOD

- Boil – in the oven without oil, e.g. cakes
- Fry – in the oven using oil, e.g. meat
- Grill – in oil or butter above the heat, e.g. sausages
- Roast – under the heat, e.g. toast or meat
- Bake – in water, e.g. carrots
- Tasty – lots of sugar
- Sweet – lots of spice, e.g. curry
- Salty – has lots of taste
- Hot/spicy – lots of salt



Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

PHRASAL VERBS (Iboralar)



1. Drop off – uxlab qolmoq
For example: Sardor dropped off on the train and missed his station.



2. Take off – kiyimni yechmoq
For example: Nodir took off his jacket because he was feeling very hot.



4. Brush up – esga tushirmoq
For example: Farkhod's visit to the international business conference in Paris was a disaster because his French was so bad. His boss said, «When you get back to Uzbekistan you must brush up your French by enrolling an evening class»



5. Drop in – tashrif buyurmoq
For example: Samandar said to his friend «I might drop in for tea sometime this week».



6. Fall out – urishmoq
For example: Two friends went out for dinner together. The evening ended badly because they fell out over who should pay the bill.

Painter: YOQUBBEK



3. Give out – tarqatmoq
For example: The teacher gave out the books, so that the pupils could read the story.



Soyib MIRZO

O'ZBEKISTON

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligiga

Dunyo kezdim, hech qachon,
Sendek chaman topmadim.
Jannatga qiyos ko'rkim,
Biror maskan topmadim.
Tuprog'ing oltinga teng,
Obihayot bulog'ing.
Boqsam Tyan-Shan tog'dan,
Kulib turar yanog'ing.
Ta'rifi doston elim –
O'zbekiston, o'zbekim.

Ming asrlik tarixga,
Guvoh qancha davronlar.
Yelkangga tegdi o'ftob,
Kelib hurlik zamonlar.
Odimalaydi karvoning,
Senga tayanch avlodlar.
Bugun ruhi shod barin,
O'tgan qancha ajdodlar.
Ko'hna qahramon elim –
O'zbekiston, o'zbekim.

Baxting, iqboling to'kis,
Hilpiraydi bayrog'ing.
Kelajakni yoritar,
Bugun yoqqan chirog'ing.
Tumor bo'lay bo'yingga,
Yo'lamasin biror kas.
Istiqloq shamolidan,
To'yib olaylik nafas.
Ko'ksi ham osmon elim –
O'zbekiston, o'zbekim.

Yigirma besh yil mana,
Gullab borar Vatanim.
Barchani ezgulikka,
Yo'llab borar Vatanim.
Ey, qalamim to'xtama,
Yozaver yurt shonini.
Olam uzra yoyaver,
Buyuk Vatan nomini.
Mag'rur, bunyodkor elim –
O'zbekiston, o'zbekim.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Avlodlari boylar, eshonlar va katta-katta kishilarga bog'langani uchun qizil shapaklilarning nazoratida ekan. Har kuni bo'lmasa ham goho kimlardir xabar olib ketar ekan. Bu yerda havo sovuq bo'lishiga qaramasdan, men rahmatli otangga shaftoli yegim kelyapti, debmenda. Bir kuni tushimga shaftoli kiribdi. Kattagina oq shaftoli. Otang bechora po'stini artib, shuni yegin, deyapti. Uyg'onib ketdim. Yaxshi tush ko'rdim-da, deb otangga aytdim. U xursand bo'lib, p e s h o n a m - dan o'padi. Shu gapdan so'ng u ba'zan-ba'zan bir kun yarim kun yo'q bo'lib qoladigan odat chiqardi. Yuragimni hovuchlab o'tiraman. Keyin bilsam, men uchun shaftoli axtarib yurgan ekan. Bir kuni katta ko'zda, bir dunyo shaftoli ko'tarib kelsa bo'ladi-mi, surishtira-surishtira shaftolini saqlab qo'yadigan odamning manzilini topibdi. U inson shaftolidan murabbolar, shirinkliklar tayyorlar ekan. Bir kuni aytganimdek, bir ko'zani ko'tarib keldi. – Shaftoli, shaftoli! – deydi hayajondan.

– Qishda shaftoli nima qiladi? – deyman hayron bo'lib. – Ishonasanmi o'g'lim, bir ko'za shaftoli xuddi kecha uzilgandek liqillab turibdi-ya. Lekin bu yerda ham ko'p turmadik. Bir kuni chamas, peshin vaqti edi. Rafiqjon o'rtog'i hovliqib kirib: – To'xtavoy qani? – deb so'radi.

– Ko'lga o'rdak oviga ketdi, – dedim.

– Qaysi ko'lga ketdi?
– Shaytonko'lga, – deyman shoshib.

Rafiqjon ko'z yumib ochguncha yo'q bo'ldi-yu, bir oshpishar vaqt ichida ikki otliq qaytib kelishdi.

– Endi ochig'ini ayt, kim meni surishtirdi? – deb otang otdan tushib, do'stiga yuzlandi. – Nima deb surishtirdi?

– Uyingdagi begona odam kim, deb so'radi.

NAVOIYGA BIR KELING

So'lim-so'lim bog'lar har yonda,
Karmanami yo Zarafshonda,
Dam olingiz, bo'ling mehmonda,
Navoiyga bir kelib-keting.

Ko'zingizga tanish tuyulgan,
Qadim tarix naqshi o'yilgan.
Buyuk bobom nomi qo'yilgan,
Navoiyga bir kelib-keting.

Go'zallikdan bahra olasiz,
Qalbingizga quvonch solasiz.
Vaqt o'tganin bilmay qolasiz,
Navoiyga bir kelib-keting.

Yurt mehrini tuyadi bu xalq,
Elim, deya tinmaydi bu xalq,
Mehmonlarni suyadi bu xalq,
Navoiyga bir kelib-keting.

O'lmasbek RAIMQULOV,
Navoiy viloyati, Nurota maishiy xizmat
ko'rsatish kasb-hunar kolleji o'quvchisi



SHAHNOZA chizgan rasmlar

ENG YAXSHI DO'ST

Kitob qadim-qadimdan,
Insoniyat do'stidir.
U maslakdosh, ko'makdosh,
Eng yaxshi do'st, hamrohdur.

Eng aziz, deb bobolar,
Ardoqlashgan donolar.
«Ma'naviyat bulog'i»,
Der kitobga oshnolar.

Farangiz YUSUPOVA,
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi
4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

yig'lashib tong ottirdik. O'yijonimga shuncha yolvorsam ham davomini keyin aytaman deb, beshikning poyasiga boshini qo'ydi-yu uxlab qoldi.

KUMUSH LAGANNI ESHAKKA ALMASHTIRDIK

Yo'q, yo'q kulmang. Chindan ham kumush laganni chiroyli eshakka almashtirdik. Lekin lagan zo'r edi. Juda zo'r edi. Haligi, to'rt kishi pailov yeydigan barkash laganlar bo'ladi-ku, ana shunday chiroyli, kungurasiga nafis gullar ishlangan. Otamdan qolgan va To'raqul amaki yerga ko'mib berkitgan mana shu laganni, yig'lamsirab bo'lsa ham aytay. Rahmatli Nasriddin bobomdan qolgan edi. Uni bobom o'yijonimning nikoh to'yida bergan ekan.

Yal-yal yonib turgan laganni chindan ham eshakka almashtirdik. Hozirgina aytganimdek, o'yijonim bilan uzoq suhbatlashdik. Bobojonimdan qolgan dang'illama uylarimiz kimlarning qo'lida qolganligini qayta-qayta so'radim. Otangdan qolgan boyligni birov olib qo'ysa, alam qilar ekan-da.

Hali aytdim-ku, qattiq uxlab qolgan ekanman.

– Tur, chiroqni yoq! Bilaman, bunaqa buyruqni enajonim berardi.
– Tezroq tur, – yanada kuchliroq buyruq berdi.

Shoshib, o'mimdan turdim. O'gay akam allaqachon turib olibdi. Betini yuvdimi, yo'qmi bilmayman. Qo'lida kumush lagan yal-yal yonib turibdi. O'yijonim chala uyqu bo'lgani uchunmi beholigina, boshini arang ko'tarib, yonida turgan barkashga

bir qaradi-yu, «Rahmatli otang...», «nikohimiz...» dedi-yu yo'q, u yog'ini aytmolmadi, ko'zidan mitillab yosh tomanini ko'rdim.

– Enajon, buni chindan ham bizga olib keldingizmi? – ishonchsizroq ovozda erkalanibroq so'rayapti o'gay akam.

– Ha, o'g'liginam. Sizlarga olib keldim, sotinglar, – entikibroq, lekin qovog'ini solibroq deyapti yana. – Sotinglar, mayli, puliga eshak olinglar. Pul ortsa, bug'doy, jo'xori ham olinglar. Xudoyberdi o'g'lim birga borsin. Rahmatli ota-bobolaridan qolgan boyluk-da. Sotilganini o'z ko'zi bilan ko'rsin. Mehri so'nadi. Tezroq jo'nanglar.

Jun xurjunimiz bor edi. Laganni ehtiyotlab o'shanga soldik-da, «Ey Alloh, bozorimizni bergin», deb aka-uka yo'lga chiqdik. Xo'rozlar, men hammangdan zo'rman, deganday kimo'zarga qichqirishadi. Yana aytmoqchimanki, hali tong otib ulgurmagani, bobo quyoshimiz «biz mana bu yerdamiz», deb husni-jamolini ko'z-ko'z qilayotgan edi. Voy, bu biz vaqtli turdik desak, bizdan ko'ra besh karra oldinroq turganlarga ko'cha to'la ekan. Eshakni minib ikki nabirasini yonida ergashtirib ketayotgan chol-bobolar, paranj yopinib, chimmatini sal ko'tarib olib ikki qo'lida ikki xurmacha qatq bilan shoshilib borayotgan onalar, o'g'liga tug'ay-tug'ay deb turgan qo'yni yetaklatib, tezroq yursang-chi, deb qo'yni emas, nabirasini yoki o'g'lini so'kib borayotgan amakilar. Sigirini nabirasiga yetaklatib, lloyo, yaxshigina pul bo'lsin, deb tinmay duo o'qib borayotgan tog'alar.

– Ha, ha, bozorga intilayotganlarni ta'riflab, ado qilolmaysiz. Bir bola no'xat sho'rva olib bermasang, yurmayman deb, loy yerga o'tirib olib oyog'ini silkitayotibdi.

(Davomi bor)



TAGOB QISHLOQ ERTAKLARI

– Sen nima deding?

– Qarindoshim, dedim. Daftarga qarab turib, senda bunaqa qarindosh yo'q, deb aytdi.

– Keyin nima bo'ldi?

– Keyin men hovliga chiqqan bo'lib, buyoqqa qarab chopdim.

– Sora, o'mingdan tur, yig'ishtir, – baqirib yubordi otang. Bir zunda yo'lga otlandik. Shaytonko'l tomoniga ot choptirib boryapmiz. Shukurki, otangning oti kuchli. Qumli joyda ham, toshloqda ham yaxshi chopadi.

Shunday qilib, onajonim bilan

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida davom etayotgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari ikkita bronza medalni qo'lga kiritdi.

Rio2016 UMMON ORTIDAGI ILK MEDALLAR

Dzyudo bo'yicha o'tkazilgan dastlabki kungi belashuvlarda Diyorbek O'rozboyev O'zbekiston sport delegatsiyasi hisobiga ilk medalni keltirdi. Vazni 60 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar bahsida qatnashgan iqtidorli dzyudochimiz avstraliyalik Joshua Kats, shveysariyalik Lyudovik Chammartin, braziliyalik Felipe Kitadai va gruziyalik Amiran Papinashvili yengib, bronza medalga sazovor bo'ldi.

Vazni 66 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar bel-

lashuvda dzyudo bo'yicha ikki karra jahon chempioni, Pekin va London Olimpiadalari sovrindori Rishod Sobirov ham jamg'armamizni yana bitta bronza medaliga boyitdi.

U keskin va murosasiz kechgan bahs-



OMAD KUCHLILARGA KULIB BOQDI

Namanganda karting bo'yicha O'zbekiston kubogining final bosqichi bo'lib o'tdi. Unda respublikamiz viloyatlari hamda Toshkent shahri jamoalari ishtirok etdi.



Turnir Vatanimiz mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Markaziy Kengashi hamda Namangan viloyat hokimligi hamkorligida tashkil etildi.

Musobaqa yakuni-ga ko'ra, Toshkent shahridagi «Bektemir» o'quv sport-texnika klubi a'zolari – Kamoliddin Najmiddinov, Vyacheslav Shipkov, Toshkent birlashgan texnika maktabi vakili Danil Belyakov, Gu-

beloruslik Dmitriy Shershan, arubalik Jeym Mata, Dominikan Respublikasidan kelgan Uander Mateo va sloveniyalik Adrian Gombotsni mag'lubiyatga uchratdi.

liston shahri vakili Ivan Barishev, Namangandan Adham Egamberdiyev, andijonlik Ibrohimjon To'ychiyev va Islombek Ismoilov birinchiilikni qo'lga kiritdi.

Shavkat KAZAKBAYEV

Buxoro viloyatining Buxoro tumani sambo bo'yicha ko'plab jahon chempionlari yetishib chiqqan go'shalardan biri sanaladi. Bu yerda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» Fatillo Xoliqov qo'l ostida Sobir Qurbonov, Shuhrat Ochilov, Rauf Boltayev, Akobir Qurbonov singari jahon chempionlari, jahon chempionati sovrindori Hasan Mavlonovdek taniqli sportchilar yetishib chiqqan.

CHEMPIONLARNING MUNOSIB DAVOMCHISI

Bugungi kunda ularning munosib davomchisi bo'lib Azamat Fayzullayev maydonga chiqdi. U oliy toifali murabbiy Obid Xoliqovdan sambo bo'yicha dastlabki saboqlarini olib, tuman va viloyat miqyosidagi musobaqalarda g'oliblikka erishdi. Keyinchalik Toshkent shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasida O'zbekiston birinchiligida yuqori natijalarni qayd etdi. So'ng, Buxoro, Urganch shahrida o'tkazilgan yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionatida 1-o'rinni egallab, Osiyo chempionatida qatnashish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi. Qit'a birinchiliklarida shohsupaning yuqori pog'onasini egallab, tengsiz sambochi ekanligini isbot etdi.

Ulug'bek SAIDOV



Buxoro tumanidagi 18-umumta'lim maktabi o'quvchisi Azamat Fayzullayev yaqinda Turkmaniston Respublikasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida 3-o'ringa sazovor bo'ldi. Yosh sportchimiz bugungi kunda jahon chempionatiga puxta tayyorgarlik ko'rmoqda.

G'OLIBLAR MASKANI

Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi 27-umumta'lim maktabida o'quvchilarning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha imkoniyatlar muhayyo. Maskanda shaxmat-shashka, tennis, sambo, sport va badiiy gimnastika, yengil atletika kabi sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi.



O'z navbatida, o'quvchilar ko'p yillardan beri tuman, viloyat, Respublika miqyosida o'tkazilayotgan turli musobaqalarda faxrii o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Jumladan, Asror Abdunabiye va Rasul To'xtasinov Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan viloyat birinchiligida sambo bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Eldor Ahmadjonov boks bo'yicha Andijonda o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni egalladi. Shu yili «Bahor malikalari» sport musobaqasida Himoyat To'lanova, Barnoxon Vahobova tumanda g'olib bo'ldi.

Otabek Abdug'afarov sportda erishgan yutuqlari sabab, Farg'ona davlat universitetining jismoniy tarbiya yo'nalishiga imtiyozli qabul qilindi. O'quvchilar muvaffaqiyatlarida maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari Topvoldi Qo'ziyev, Pahlavon Nuraliyev, Rahmatjon Usmonov va Ilhomjon Mamtaliyevning chuqur bilim va tajribalari asos bo'lmoqda.

Muhammadsodiq ALIMOV



Ikki qarg'a bir shoxda,
O'tirardi «qag'-qag'»lab.
U yoq bu yoqdan so'zlab,
Kulishardi «xo-xo»lab.
Shu on ular ustidan,
Raketa o'tdi uchib.
Qarg'alar bo'lsa shoxda,
Turardi og'zin ochib.
– Namuncha tez uchmasa,
Anavi mitti qushcha.
O'zini ko'z-ko'z qilib,
O'taveradi muncha?!
Axir u – raketa-da,
Eshitmaydi so'zingni,
Dumingga o't qo'yishsa,
Ko'rar edim o'zingni...

Parizoda RO'ZIBOYEVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
16-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Assalomu alaykum, quvnoq, sho'x va shodon bolajonlar!
Ta'tilni maroqli o'tkazyapsizmi? Tabiat qo'ynida miriqib
dam olib, yangi o'quv yiliga kuch-g'ayrat to'playapsizmi?
Orangizda «maktab qachon boshlanarkin, sinfdoshlarimni
juda sog'indim», deydi qanday o'quvchilar ham talaygina.
Tilagimiz, ta'tilning har bir kunidan unumli foydalaning.
Ana shunda o'tkazgan vaqtingizga sira achinmaysiz.

Bolajonlar, ta'til davomida qaysi kitoblarni o'qidingiz?
Hayotingizda qanday qiziqarli, unutilmas voqealar
ro'y berdi? Balki yangi do'stlar orttiringandirsiz?
Ularning qaysi fazilatlarini sizga ma'qul bo'ldi? Bu
haqda bizga, albatta, yozib yuboring. Xatlaringizni
kutamiz!

OZODA opangiz



Matematika o'qituvchisi Eshmatni
doskaga chiqarib so'radi:
– Xo'sh, Eshmat, 8 ni 2 ga bo'lsak,
necha bo'ladi?

Eshmat o'ylanib turib:
– Agar uzunasiga bo'lsak, ikkita 3,
eniga bo'lsak,
ikkita 0 bo'ladi, – dedi.

MANTIQUIY SAVOLLAR

Bir kuni ikki matematik
uchrashib qolishibdi. Biri ikkin-
chisidan so'rabdi:
– Hozir necha yoshdasiz?
– Men tug'ilganimga, otam 25
yoshda bo'lganlar. Hozir ular va
mening yoshimni qo'shsak, 89
ga teng bo'ladi. Aytinch birin-
chi matematik necha yoshda?

Qoraqalpog'istonda 6 ta, Sa-
marqand, Farg'ona, Buxoroda 3
ta, Toshkent, Xiva, Xorazmda 2
ta, Popda nechta?



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR! KROSSVORD

Eniga: 1. Dars. 3. «Iliada» asari muallifi, yunon tarixchisi.
7. Qizil sayyora. 8. Osiyodagi davlat. 9. Kechirish, gunohidan
o'tish. 12. Ertakdagi mitti odamlar. 13. Togo davlati poytaxti.
18. ...Tolstoy (rus yozuvchisi). 20. Tinish belgisi. 21. Suzish turi.
22. Tarix. 23. Sport anjomi.

Bo'yiga: 1. Milliy taom. 2. Shveysariya poytaxti. 4. I. Turgenev
asari. 5. Kasallik turi. 6. Ochko'zlik. 10. Namangan viloyatidagi
tuman. 11. Yirtqich qush nomi. 14. Dard, alam. 15. Mol ozuqasi.
16. San'at turi. 17. She'r vazni. 19. Gretsiyadagi orol.

1	2			3	4	5
			6			
7					8	
		9				
	10			11		
12				13		
14			15			16
	17	18			19	
20				21		
22				23		

Shahrizoda NASHPANDOVA,
Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 4-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

QUYOSH KO'RINMAYDIGAN SHAHARLAR

Orangizda quyoshda qizarib pishgan shirindan-shakar, totli mevalarni
mazza qilib iste'mol qilmaydigan bola bo'lmasa kerak. Lekin yer yuzida
quyosh nuridan bahra olmay yashayotgan insonlar ham topilar ekan.

MURMANSK – qutb doirasi ortida joylashgan dunyodagi eng yirik shahar
hisoblanadi. Bu yerda qishda havo harorati -10 darajagacha iliydi. Yilning bir
necha oylariga cho'ziluvchi tunlar esa ruhan tayyor bo'lmagan kishi uchun chi-
nakam muammo bo'lishi mumkin. Bu davrda quyosh umuman ko'rinmaydi,
kunduz kuni ham atrofda qorong'ulik chekinmaydi.

JUNO – AQSHdagi shtatlarning poytaxtlari ichida eng kattasi hisoblanadi.
Shahar hududi rasman 8 430 kvadrat kilometrni tashkil etib, uning 99 foiz may-
doni hech qanday sivilizatsiya alomatlarini sezilmaydigan o'rmonli tog'lardan ibo-
rat. Quyosh nurining deyarli yo'qligi esa kishini tushkunlikka tushiradi.

Internet manbalari asosida
Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

BU QIZIQ

* Bir yil 31 536 000
daqiqadan iborat.

* Inson barmoqlari butun
hayoti davomida taxminan 25
million marta bukiladi.

* Dengiz chig'anog'ini qulog'ingizga
tutganda, okean shovqinini eslatuvchi
tovush aslida, vujudingizda aylanib
oqayotgan qon tomirlarning harakatidir.

* Bir milliard soniya
taxminan 37 yilga teng.

* Inson o'ziga yoqqan manzara yo
holatni ko'rganda ko'z qorachilari
beixtiyor 45 foizga kattalashar
ekan.

Adolat FAYZIYEVA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

15-avgust 2016

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir GANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Saidullo
TURSINOV
Rassom
Feruza
Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-
dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 26389
Buyurtma – S 6737

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08